

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 5 681,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 0,5 % ga kamaydi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 108,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,7 % tashkil qildi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



|                                                        | Mlrd. so'm     |                | O'sish<br>sur'atlari,<br>o'tgan yilning<br>mos davriga<br>nisbatan % da |
|--------------------------------------------------------|----------------|----------------|-------------------------------------------------------------------------|
|                                                        | 2024- yil      | 2025- yil      |                                                                         |
| <b>I. YAHM, jami</b>                                   | <b>5 242,0</b> | <b>5 681,9</b> | <b>99,5</b>                                                             |
| <i>shu jumladan:</i>                                   |                |                |                                                                         |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati              | 5 139,5        | 5 472,3        | 99,6                                                                    |
| mahsulotlarga sof soliqlar                             | 102,5          | 209,6          | 96,8                                                                    |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>  | <b>5 139,5</b> | <b>5 472,3</b> | <b>99,6</b>                                                             |
| qishloq, o'rmon<br>va baliqchilik xo'jaligi            | 843,9          | 968,0          | 104,0                                                                   |
| sanoat<br>(qurilishni qo'shgan holda)                  | 2 350,8        | 2 246,6        | 93,0                                                                    |
| sanoat                                                 | 1 974,0        | 1 840,7        | 90,7                                                                    |
| qurilish                                               | 376,8          | 405,9          | 104,9                                                                   |
| xizmatlar                                              | 1 944,8        | 2 257,7        | 105,7                                                                   |
| savdo, yashash va<br>ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar | 534,1          | 630,6          | 110,0                                                                   |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 214,8          | 259,1          | 110,3                                                                   |
| boshqa xizmat tarmoqlari                               | 1 195,9        | 1 368,0        | 102,9                                                                   |

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 092,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,3 % ga kamdir.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

|                                                       | 2024- yil    | 2025- yil    |
|-------------------------------------------------------|--------------|--------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                                  | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                                  |              |              |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati             | 98,0         | 96,3         |
| mahsulotlarga sof soliqlar                            | 2,0          | 3,7          |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| qishloq, o'rmon<br>va baliqchilik xo'jaligi           | 16,4         | 17,7         |
| sanoat<br>(qurilishni qo'shgan holda)                 | 45,7         | 41,0         |
| sanoat                                                | 38,4         | 33,6         |
| qurilish                                              | 7,3          | 7,4          |
| <b>xizmatlar</b>                                      | <b>37,9</b>  | <b>41,3</b>  |
| savdo, yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar   | 10,4         | 11,5         |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa               | 4,2          | 4,7          |
| boshqa xizmat tarmoqlari                              | 23,3         | 25,1         |



2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 17,7 % ni, sanoat tarmog'i 33,6 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 41,3 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 1,0 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,1 f.p. (2024- yilda – 1,4 f.p.) va sanoat tarmog'ida esa – minus 3,5 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,1 f.p.) salbiy ta'sir qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM minus 0,1 f.p. (2024- yilning yanvar-martida– 0,2 f.p.)ga kamaydi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning kamayishi hudud iqtisodiyotining sanoat tarmog'idagi keskin pasayishi bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 17,7 %), sanoatda – 90,7 % (33,6 %), qurilishda – 104,9 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 105,7 % ni (41,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,0 % (11,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,3 % (4,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,9 % dan (25,1 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



5,4 %

**YAHM**

- 0,5 %



4,2 %

**Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi**

4,0 %



6,0 %

**Sanoat**

-9,3 %



13,1 %

**Qurilish**

4,9 %



3,8 %


**Xizmatlar**

5,7 %



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 108,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,3 % va xizmatlarda – 109,9 % qayd etildi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 3 397,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 2 893,8 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 62,1 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 56,3%) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

2 893,8

56,3 %

2025- yil

3 397,9

62,1 %

